

**Kompetensiyaviy yondashuv asosida maktabgacha ta'lim jarayonida
bolalarning fikrlash faolligini rivojlantirish**

Rixsiboyeva Nodira Muksumovna

207-Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning fikrlash faolligini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umumiy kompetentsiyalari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiya tizimiga zamonaviy yondashuvlar to'g'risida batafsil fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, maktabgacha ta'lim jarayon, fikrlash faolligi, umumiy kompetentsiyalar.

Kirish:

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimining metodik ta'minotini rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar yordamida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni intellektual tomondan rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'qitishning muhim vazifasi faqatgina bolani qandaydir aniq bilimlar va undan foydalanish malakalarini o'rgatish emas, balki yanada murakkab vazifalarni yechishda ularni qo'llash, yangi vazifalar va natijalarni ishlab chiqishdir. Faol fikrlashning aynan mazkur malakasi bolalarning kelgusida maktabdagi hamda kasbiy ta'lim muassasalaridagi o'qishlarining muvaffaqiyatliligining asosi uchun javob beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar:

Oxirgi vaqtlarda rivojlanishida muayyan darajada og'ishlarga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar soni sezilarli darajada oshdi. Ularning aksariyati barqaror patologiyaga va maktabgacha yoshdagi bolalar funksional kasalliklariga ega bolalardir. Har ikkala toifadagi bolalar odatda rivojlanayotgan tengdoshlaridan farq qilib, turli sabablarga ko'ra ijtimoiy va psixologik moslashuvda qat'iy va aniq buzilishlarni boshdan kechiradilar. Buning birinchi belgilaridan biri bo'lgan

bolaning tengdoshlaridan hissiy rivojlanishning buzilishidir, bu aniq ifodalanmasa ham, shaxsni shakllantirishda ogʻishga olib kelishi mumkin.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi doimo birinchi va asosiy masala boʻlib kelgan. Ta'lim-tarbiya masalasi xalqimizda har doim dolzarb hisoblangan. Tarbiya avvalo oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimlari ichida boshlangʻich halqa hisoblanadi. Ana shu poydevor qanchalik mustahkam boʻlsa keyingi bosqichlarda ham gurkirab rivoj topadi.

Natijalar:

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarining ongida gʻoyaviy boʻshliq paydo boʻlishiga yoʻl qoʻymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qoʻshadigan barkamol avlodni voyaga yetkazish yoʻlidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil qilinayotgan ta'lim-tarbiya jarayonlarining hamma jabhalarini qamrab olishi kerak boʻlib, ushbu jarayonda oʻrganilayotgan tushunchalarga nisbatan tarbiyalanuvchining qiziqishini takomillashtirish va shakllantirishda ularning faolligini oshirishni taʼminlash, aynan biz, pedagoglarning zimmamizdagi asosiy vazifa sanaladi.

Maktabgacha ta'lim bolaning jamiyat bilan bogʻlashning dastlabki qadamlari desak mubolagʻa boʻlmaydi. Shunday ekan, bolalarni toʻgʻri yoʻnaltirish, ularni jamiyatda oʻz oʻrinlarini topish, eng muhimi jamiyatga foydasi tegadigan shaxs etib etishtirish shu qadamning mahsuli ekanligini unutmasligimiz kerak. Xalqaro tajribalarda ham bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha va boshlangʻich sinf yoshlariga toʻgʻri kelishi oʻz isbotini topgan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni mustaqil fikrlashga va oʻz fikrlarini toʻgʻri yoki notoʻgʻri ekanligidan qatʼiy nazar qoʻrqmasdan fikrini ochiq bayon qila olishga oʻrgatish darkor.

Muhokama:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik jarayonlarni takomillashtirish oʻsib kelayotgan yosh avlodni maʼnaviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni

sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti sanaladi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini foydalanishga yordamlashadi.

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga doir faolliklarini rivojlantirishning asosiy vositasi o'yinli texnologiyalardan foydalaniladigan mashg'ulotlar sanaladi. Shuningdek, bola o'zini o'z faoliyatining sub'ekti sifatida his qilishi uchun hamma mumkin bo'lgan va yoshiga mos bo'lgan jihozlardan samarali foydalanish lozim.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tizimida pedagog tomonidan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda ta'limni rivojlantirish vazifasi ilgari qo'yiladi va bunda bolaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish zamonaviy maktabgacha ta'lim-tarbiyaning konsepsiyasi sanaladi. Pedagog bolalarni kuzatishi natijasida ularning nimalarni bilishlari, bajara olishlari va tushunishlariga tayangan holda bolalarning alohida qobiliyatlarini inobatga olib rejalar ishlab chiqadi va har bir bolaga o'z imkoniyatini to'liq ishga solishida, izlanishiga, ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishiga, tashabbus ko'rsatishiga, yangi fikrlarni kashf qilishda yordamlashish uchun zaruriy choralarni aniqlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumev A. O'qituvchi shaxsi shakllanishining ayrim masalalari // Pedagogik ta'lim jurn., 2007.
2. Butaeva U.A. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv // Pedagogika jurn., 2017.
3. F.R.Qodirova va boshq. Maktabgacha pedagogika. Darslik. –T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2019.
4. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 2001.